



DEVELOPMENT CHARACTERISTICS OF THE MIDDLE EAST IN THE CONTEXT OF GLOBAL CHANGE

Durdona Madaminova

*Candidate of Political Science, Associate Professor
Tashkent State University of Oriental Studies
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Greater Middle East, Arab nationalism, islamism, megatrends, regional system, exclusivism, integration.

Received: 01.06.22

Accepted: 03.06.22

Published: 05.06.22

Abstract: This article analyzes the specific development features of the Middle East region in the context of globalization, internal and external factors affecting them. The article reveals the specific stages of development of the Middle East, the peculiarities of the formation of national state structures, the harmony of language, religion and culture in the development of the region, the internal factors influencing the development of relations with the outside world on the basis of comparative political and historical methods.

GLOBAL O'ZGARISHLAR SHAROITIDA YAQIN SHARQ MINTAQASINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Durdona Madaminova

*Siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar. Katta Yaqin Sharq, arab millatchiligi, islomiylik, megatrendlar, mintaqaviy tizim, eksklyuzivizm, integratsiya.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yaqin Sharq mintaqasining globallashuv sharoitida o'ziga xos rivojlanish xususiyatlari, ularga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar tahlil etilgan. Maqolada Yaqin Sharq davlatlarining o'ziga xos taraqqiyot bosqichlari, milliy davlatchilik tuzilmalarini shakllantirish xususiyatlari, mintaqa taraqqiyotida til, din va madaniyatning o'zaro uyg'unligi, tashqi olam bilan o'zaro munosabatlarning rivojiga ta'sir qiluvchi ichki omillar qiyosiy-siyosiy va tarixiy usullar asosida ochib berilgan.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ БЛИЖНЕГО ВОСТОКА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛЬНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ

Дурдона Мадаминова

кандидат политических наук, доцент

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Большой Ближний Восток, арабский национализм, исламизм, мегатренды, региональная система, эксклюзивизм, интеграция.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности развития ближневосточного региона в условиях глобализации, а также, внутренние и внешние факторы, влияющие на развитие стран региона. На основе сравнительно-политических и исторических методов раскрываются этапы развития стран Ближнего Востока, особенности формирования национальных государственных структур, общность языка, религии и культуры, внутренние факторы, влияющие на развитие отношений с внешним миром.

KIRISH

Yaqin Sharq mintaqasi misolida yuz bergan o'zgarishlarni 1-jahon urushidan "Arab bahori" gacha bo'lgan uzoq muddatli davr oralig'ida sodir bo'lganini kuzatish mumkin. Ushbu mintaqa mamlakatlarining davlat qurilishi va siyosiy tizimlarining shakllanishi xalqaro tajriba va mintaqaviy xususiyatlarning o'zaro hamohangligi natijasida yuz bergan. Siyosiy tizimlarda zamonaviylik va an'anaviylikning o'zaro uyg'unlashuvi, ularning mavjud ichki ziddiyatlarga nisbatan bardoshlilikini oshirishga xizmat qiladi. Mintaqaning xalqaro siyosiy tizimiga xos bo'lgan xususiyati tashqi ta'sirlarga nisbatan kuchli ta'sirchanlik va eksklyuzivlik (Isroil va ayni paytda Eron kabi "ajnabiylar"larga qarshi birlashish)da namoyon bo'lmoqda. Islomiylik demokratiya, huquq va erkinliklar hamda kuch ishlatish kabilarga nisbatan turlicha qarashlarga ega bo'lgan, ammo G'arb dunyosiga nisbatan birdek salbiy munosabatda bo'lgan turli oqimlarni o'zida birlashtirgan hukmron mafkura sifatida tobora ommalashmoqda.

ASOSIY QISM

So'nggi yillarda Katta Yaqin Sharqning keng ko'lamli hududi bo'ylab o'ziga xos shiddatli tarzda kechuvchi siyosiy voqealar sodir bo'lmoqda. Mavjud voqe'liklarning mazmun-mohiyati va sabab-oqibatlarini anglashda nafaqat o'n yilliklar, balki so'nggi yuz yillikda sodir bo'lgan siyosiy jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish talab etiladi. Tarixchi olimlar tomonidan tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlari turlichi yondashuvlar asosida talqin qilingan. Xususan, britaniyalik

tarixchi olim E.Xobsbaum tomonidan fransuz inqilobidan 1-jahon urushiga qadar davom etgan davr “uzoq muddatli XIX asr” hamda tarixiy taraqqiyotning 1914-1991 yillar oralig‘idagi davri “qisqa muddatli XX asr” [1] nomi bilan talqin etiladi. Bizning e’tiborimiz markazida bo‘lgan jarayonning boshlang‘ich pallasi ham aynan shu davrni o‘z ichiga oladi[2].

1-jahon urushi yakuniga yetgach, mintaqa tarixida tub burilishlar davri o‘z sahifasini ochib boshladi. Bu davrga kelib, bir necha asr davomida o‘z buyukligini saqlab kelgan Usmoniylar sulolasi tobora kuchsizlanib, oxir-oqibatda inqirozga yuz tutdi. Yuzaga kelgan vaziyatdan unumli foydalangan holda, 1916 yilning 16 may kuni Buyuk Britaniya va Fransiya o‘rtasida bir qismi sifatida Levant va Mesopotamiyani mandatlar asosida o‘zaro bo‘lishib olish to‘g‘risida o‘rtasida Sayks-Piko kelishuviga erishildi. Shu bilan birga, 1917 yilda Falastin hududida “yahudiylar uchun milliy o‘choqni yaratish to‘g‘risida”gi Balfur deklaratsiyasining qabul qilinishi, mintaqaning kelgusi tarixida tub burilish yasab, tizimli transformatsiyaga sabab bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi[3].

Mintaqada yuz bergan tizimli o‘zgarishlar natijasida Yaqin Sharq mintaqasi o‘zining bugungi kun qiyofasini kashf etdi. Bunda quyidagi omillar muayyan darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatdi:

- davlatchilikning shakllanishi hamda siyosiy tizimlarning universal ahamiyat kasb etishi;
- jahon siyosatining globallasuvi (mintaqaviylashuvi);
- xalqaro maydonda G‘arb olami nufuzining o‘zgarishi;
- yaxlit jahon iqtisodiy tizimining shakllanishi;
- yuqori sur‘atlardagi demografik o‘shish dinamikasi;
- jamiyat hayotida din omilining kuchayishi;
- ijtimoiy tuzilmalarning zamon talablari mos ravishda takomillashuvi;
- jamiyat hayotida ta’sirchan ahamiyatga ega bo‘lgan g‘oyaviy oqimlarning yuksalishi va inqirozi kabilar shular jumlasidandir.

Mavjud omillar u yoki bu darajada mintaqa taraqqiyotida muayyan o‘rin egalladi. Ularning bir qismi mintaqaviy taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida alohida o‘rin egallagan bo‘lsa, boshqalari tashqi omil sifatida namoyon bo‘ldi. Yaqin Sharq mintaqasida ro‘y bergan davlatchilikning shakllanishida jahon tajribasi alohida o‘rin egalladi. Shunga ko‘ra, biz XX asrda Yaqin Sharq mintaqasida shakllangan davlatlarni bir necha turga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Qaram hududlar (mustamlaka, mandatosti hududlar va protektoratlar o‘rnida milliy-ozodlik harakatlari natijasida paydo bo‘lgan davlatlar. Ushbu toifaga dastlab o‘z davlatchiligiga ega bo‘lgan, ammo keyinchalik Usmoniylar sulolasi, Fransiya va Buyuk Britaniya kabi xalqaro va mintaqaviy kuchlar tasarrufiga o‘tgan davlatlarni kiritish mumkin. Ko‘plab hollarda, ularning chegaralari tarixan qonuniy kuchga ekanligini tan olib kelingan. Bu kabi davlatlar sirasiga

qadimdan o'zining madaniy sub'ektivlik g'oyasini saqlab kelgan Misr hamda XVII asrdan buyon Alavitlar sulolasi tomonidan boshqarib kelinayotgan Marokashni kiritish mumkin.

2. Xalqlarning o'zligi uzoq davom etgan mustamlakachilik davrida shakllangan yangi davlatlar. Ushbu turdagi davlatlarga 1830 yilda Fransiyaning mustamlakasiga aylangan Jazoirni misol qilib keltirishimiz mumkin.

3. Mustamlaka davlatlar o'rnida paydo bo'lgan va muqaddam o'z davlatchiligiga ega bo'lmagan davlatlar. Ushbu davlatlarning chegara hududlari mustamlakachilik davrining dastlabki yillarida, ularning tabiiy-jug'rofiy va demografik holatini hisobga olmagan holda belgilab berilgan bo'lib, ularning sirasiga Suriya, Iroq va Liviya kabilarni kiritish mumkin. Usmoniylar sulolasining hukmronligi ostidagi Quvayt Basor viloyati tarkibiga kirgan (mavjud holat keyinchalik Saddam Husayn tomonidan uni Iroqning tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilishiga asos bo'lgan), so'ngra Buyuk Britaniyaning protektorati ostiga kirgan, 1961 yilga kelib esa, o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan. Shu tariqa, bu kabi davlatlarning paydo bo'lishi va rivojlanishini o'ziga xos murakkab jarayon sifatida namoyon bo'lganini alohida e'tirof etish darkor.

4. Mintaqaviy ekspansiya va migrasion jarayonlar zahirida tashqi omillar ta'sirida shakllangan davlatlar. Ushbu davlatlar sirasiga Saudiya Arabistoni hamda Falastin hududining bir qismiga nisbatan da'volari xalqaro huquq normalari asosida tan olingan davlatlarni kiritish mumkin.

5. Ushbu guruhning yorqin vakili sifatida Turkiyani misol qilib keltirishimiz mumkin. 1-jahon urushidagi mag'lubiyatdan so'ng, Turkiya 400 yil davomida hukmronlik qilgan Usmoniylar sulolasi davriga nisbatan sezilarli tarzda tor hududga ega bo'lgan davlatlardan biriga aylandi. Mazkur davlat o'tmishda o'ziga xos mahobatga ega bo'lgan yirik mintaqaviy imperiya sifatida tarixda iz qoldirgan va bugungi kunga kelib, o'z tarkibiga kiruvchi yirik hududning katta qismidan mahrum bo'lgan yagona davlat emas. Xalqaro siyosiy vaziyatning beqaror kechishi sharoitida bu kabi davlatlarda o'tmishdagi imkoniyatlarini tiklash istagi kuzatilishi hech birimiz uchun sir emas. Bugungi kunda mavjud holatni Turkiyaning tashqi siyosatida ham kuzatish mumkin.

6. Ushbu turdagi davlatlar sirasiga Eronni kiritish maqsadga muvofiq. Eronning o'ziga xosligi shundaki, u asrlar davomida o'z chegara hududlarini saqlab qola olmagan bo'lsada, o'zining davlatchilik tarixiga sadoqatini namoyon qila oldi. So'nggi yuz yilliklar davomida davlat taraqqiyotida o'ziga xos transforziya jarayoni kuzatildi. Qajar monarxiyasidan zamonaviy Erongacha bo'lgan taraqqiyot yo'li davomida ushbu davlat fuqarolar urushi va separatizm (Gilon Respublikasi, Mahobod Respublikasi)dan tortib, sulolalar almashinuvi, davlat to'ntarishi (tashqari omillar ta'sirida), deislamisatsiya tajribasi hamda 1979 yilgi shialar inqilobi kabilarni boshdan kechirdi. Davlatchilik tarixida 1979 yilda sodir bo'lgan siyosiy o'zgarishlar Eronni teokratik tuzum va demokratiya xos xususiyatlarni o'zida birlashtira olgan bugungi islom respublikasiga aylantirdi.

Yuqorida sanab o'tilgan davlat qurilishi bilan bog'liq holatlarning barchasida G'arb andozasi asosidagi tamoyil va me'yorlarga o'tish bilan bog'liq ongli tarzda urinishlarni kuzatish mumkin. Ayrim holatlarda, mustamlakachilik siyosatini olib borayotgan davlatlar o'zlariga nisbatan qaram bo'lgan hududlarni boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida mazkur davlatlarda Yevropa davlatlariga xos bo'lgan institutlar (vazirlik, idora va siyosiy partiya kabilar)ga asos soldilar. Bir qator davlatlarda, mahalliy hukmron sinfning siyosiy modernizatsiyaga bo'lgan urinishlari zahirida bu kabi islohotlar jadal sur'atlarda olib borildi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, davlat qurilish siyosati tashqi omillar ta'sirida davlatning mavjud kuch va imkoniyatlari, o'ziga xos milliy xususiyatlarni inobatga olmagan holda majburiy tarzda singdirilgan holatlar ham uchraydi (masalan, 2003 yildan keyingi Iroq) [4].

Shu o'rinda, vesternizatsiya, ya'ni g'arblashtirish siyosati bir tomondan, an'anaviylik va zamonaviylikni o'zida uyg'unlashtirgan g'ibrid siyosiy tizimlarning paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan, institusional taraqqiyotning nomutanosib tarzda kechishi, natijada esa, ichki ziddiyatlarning avj olishiga olib kelganini alohida ta'kidlash joiz.

Bir so'z bilan aytganda, g'arb tajribasiga asoslangan davlat qurilishi va ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiya o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Zero, Fors ko'rfazi davlatlarining zamonaviy siyosiy institutlarni tashkil etish va rivojlantirish istagi, ularning jahon iqtisodiyotiga kirib borish yo'lidagi intilishlari bilan chambarchas bog'liq edi. Ammo, jamiyatni modernizatsiyalash tajribasi, mavjud huquqiy va siyosiy tizimlarni xalqaro andozalarga moslash zarurati yuqori emasligini ko'rsatdi. Zamon talablariga mos davlatni barpo etishda Yaqin Sharq elitasi, avvalo milliy masalani hal etishi lozim edi. XIX – XX asr boshlarida Yaqin Sharq davlatlari ziyolilari orasida millatchilik ruhida g'oyalarning keng yoyilishi, mintaqaviy miqyosda bir qator bahslarning avj olishiga sabab bo'ldi. 1-jahon urushidan keyingi yillarda ozodlik uchun kurash harakatlarining yuzaga kelishi natijasida, mavjud bahslar amaliy ahamiyat kasb etdi hamda davlat qurilishi borasidagi to'rt asosiy yondashuvning shakllanishiga sabab bo'ldi:

1. XIX asrga xos bo'lgan nemis millatchiligi ruxida tilga asoslangan va etnik birlikka erishish g'oyasiga asoslangan *panarabistik* yondashuv.

2. Usmoniylar sulolasi davriga xos bo'lgan arab viloyatlari (Iroq, Suriya va Livan), Mag'rib davlatlari (Jazoir, Marokash va Tunis) hamda Nil vodiysi (Misr va Sudan) o'rtasidagi yagona tarixiy o'zlikni inkor etuvchi *submintaqaviy* yondashuv. Mazkur g'oya u qadar shuhrat qozona olmadi va keyinchalik o'z ahamiyatini yo'qotdi.

3. *Mamlakatlar kesimidagi* mazkur yondashuvning bir qancha ko'rinishlarda aks etganini ko'rish mumkin. Ba'zida u geografik va tarixiy shaklda namoyon bo'lgan (Misr misolida o'tmishda ham mavjud bo'lgan) bo'lsa, boshqa holatda, mustaqillik uchun kurash yo'lida (Jazoir va Tunisda) yuzaga kelgan vaziyat zahirida shakllangan. Uchinchi holatda esa, u davlatchilik

shakllangandan keyingi yillarda yuzaga kelgan (Liviya, Sudan va Fors ko'rfazi monarxiyalari misolida).

4. So'nggi yondashuv tom ma'noda Yaqin Sharq davlatlariga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan holda, diniy jamoa g'oyasini millat g'oyasiga aylantirishni nazarda tutgan bo'lib, uni *islomiy* yondashuv sifatida e'tirof etish mumkin.

Mintaqa hayotida yuz bergan so'nggi yuz yillik davr mobaynida yuqorida sanab o'tilgan yondashuvlarni hech biri boshqalariga nisbatan ustunlikka ega bo'la olmadi. Natijada, millat va milliy birlik haqidagi bahslar jamiyat hayotida alohida o'rin egalladi[5].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, milliy davlatchilikni barpo etish g'oyasi mintaqaning boshqa davlatlari (arab bo'lmagan) uchun ham diqqat markazida turgan masalalardan biri bo'lib kelgan.

Turkiya misolida milliy davlatchilikni barpo etish kamolizm g'oyasi asosida ilgari surilgan bo'lib, keyinchalik u panturkizm g'oyalari bilan boyitilgan bo'lsa, Isroil va Eron kabi davlatlarda ushbu jarayon nisbatan murakkab kechganligini ko'rish mumkin. Isroil davlatiga asos solinishi yahudiy xalqi azaliy orzusining in'ikosi sifatida namoyon bo'lib, etnik va diniy qadriyatlar uning poydevorini tashkil etgan. Aholining katta qismini shialar tashkil etgan Eronda esa, fors tili milliy davlatchilik qurilishining asosi bo'lib xizmat qilgan.

Shu bilan birga, mintaqada o'tgan bir asr davomida yuksak darajada rivojlangan milliy o'zligiga ega bo'lgan, ammo o'z davlatchiligidan mahrum bo'lgan ikki xalq – qurdlar va arab-falastinlari haqida so'z yuritish mumkin. Har ikkala xalq uchun davlat barpo etish yo'lidagi kurash milliy g'urning muhim elementi sifatida namoyon bo'ldi.

Umumiy soni tahminan 10 mln. kishini tashkil etuvchi falastinliklarni joylashuviga ko'ra, shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Ulardan bir guruhi arab davlatlari hududida istiqomat qiluvchi falastinliklardan iborat bo'lsa, boshqasi BMT qaroriga muvofiq, yarim asrdan ko'p vaqt davomida Falastin yerlarida arab davlati uchun mo'ljallangan, biroq qo'shni davlatlar bilan olib borilgan urushlar natijasida Isroil tomonidan bosib olingan va bugungi kunda kvazi hudud sanalgan avtonom hudud maqomiga ega bo'lgan maydonda isqomat qiluvchilardan iborat. Garchand, falastinliklar o'zlarini yagona xalq sifatida e'tirof etsalarda, ular joylashgan har ikkala hudud o'zaro nizolashuvchi siyosiy tashkilotlarga tegishli, bular: Iordan daryosining g'arbiy sohillaridagi Fath hamda G'azo sektoridagi XAMAS harakatlaridir. Bugungi kunda XAMAS dunyoning ko'plab davlatlari tomonidan terroristik harakat sifatida tan olingan. Falastin milliy muxtoriyati – o'zaro ziddiyatli ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Zero, u bosqinchilikka qarshi kurash elementi bo'lish bilan birga, o'zini xalqaro munosabatlarning "davlatsimon" uyushmasi sifatida xalqaro maydonda faoliyat yuritmoqda[6].

Bugungi kunga kelib, umumiy soni 30 mln kishiga yetgan qurdlar, asosan Eron, Turkiya, Suriya va Iroq kabi davlatlar hududida istiqomat qiladi.

Birinchi jahon urushidan keyingi yillarda jahon tartibotining muhim elementlaridan biri sifatida qabul qilingan 1920 yilgi Sevr shartnomasiga ko'ra, qurdlarga Anatoliya hududida muxtoriyat tashkil etish tartibi o'rnatilgan. Ammo, Kamol Ataturning harbiy sohadagi g'alabalari ortidan 1923 yilgi Lozanna shartnomasidan mazkur tartib olib tashlandi.

Kurdarning ijtimoiy-madaniy jihatdan o'zaro tarqoqligi, Kurd milliy harakatining mustahkamlanishiga to'sqinlik qilib kelgan: tarixan ular ko'chmanchi va o'troq aholi vakillari hamda shahar aholisidan iborat bo'lib, o'zaro bir-biridan keskin farq lahjalar va qadriyatlarga ega bo'lganlar. XX asrga kelib, turli siyosiy tuzilmalarga ega bo'lgan qurdlarni o'zaro farqlovchi jihatlar yanada kuchayishda davom etgan.

Qurdlar nisbatan yirik etnik guruh bo'lgani holda, o'z davlatiga ega emasligi, bugungi kunga kelib, ularning jiddiy e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Qurdlar istiqomat qiluvchi to'rt davlatdan biri, ya'ni Iroqda Iroq Qurdistoniga asos solingan bo'lib, u keng avtonomiyaga ega. Ba'zida unga nisbatan "protodavlat" atamasi ham qo'llaniladi[7].

Shunday qilib, o'tgan asr mobaynida mintaqada davlatchilik tuzilmalarining shakllanishi, institusional nomutanosibliklar bilan bog'liq holda yuz berdi. Yuqorida so'z borgan davlatlarning hech birida milliy birlikka asos solish jarayoni Yevropa modeliga asoslanmagan bo'lib, o'zining mantiqiy yakuniga yetmagan edi. Shunga ko'ra, Yaqin Sharq davlatlari misolida milliy davlatchilikning shakllanishi xususida so'z borganda, uni muayyan shartlar asosida yuzaga kelgani hamda davlatchilikning gibrid shakliga asoslanganligini e'tirof etish mumkin. Mavjud holat mintaqada mavjud nizoli vaziyatlarga barham bermaygina qolmay, balki azaliy ziddiyatlarning yanada avj olishiga zamin yaratdi.

Shu bilan birga, hozirgi zamon hokimiyati va boshqaruv apparatlarining ba'zida an'anaviy tuzilmalar bilan joy almashinuvi holatlari kuzatildi. Mavjud holat nizoli vaziyatlar yohud hokimiyatning tashqaridan singdirilgan yot g'oyalar asosida faoliyat yuritayotgani borasidagi qarashlar zamirida yuzaga keldi. Natijada, Yaqin Sharq davlatlariga nisbatan modernizatsiyani qabul qila olmaslik va uni amalga oshirish layoqatiga ega emaslik borasidagi ayblovlar qo'yila boshladi. Ammo, mavjud qarashlarning noo'rin ekanini ta'kidlagan holda, uni quyidagi sabablarga ko'ra asoslash mumkin:

1. Dastlab, modernizatsiyani siyosiy nuqtai nazardan idrok etish masalasiga to'xtalish lozim. Bunda, mavjud voqe'likning rad etilishini, uning shaxsiy ijod mahsuli emas, balki zulmkor vosita sifatida qaralishi bilan bog'lash mumkin. Tarixga yuzlangan holda, o'tmishda Yaqin Sharq mintaqasiga modernizatsiya va oq tanli odamlar bilan birgalikda erkinlik va farovonlik emas, balki mahkumlik hamda inson qadr-qimmatini kamsituvchi me'yorlar kirib kelganligini kuzatish mumkin. Garchand, tarixiy xotira abadiy bo'lmasada, u uzoq vaqt davomida salbiy hissiyotlarning saqlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Yaqin Sharq mintaqasi tarixida esa, bu kabi misollar talaygina.

2. Modernizatsiya jarayonini ideal holat sifatida qabul qilmaslik, aksincha uning mavjud jamiyat va davlatga nisbatan moslashuvchanligini qabul qilish darkor. Bunda asosiy maqsad, muayyan jamiyatning xavfsizligi va barqarorligiga erishishdan iborat bo'lishi lozim. Ba'zida mavjud tizimda arxaik elementlarning mavjudligi uning barqarorligi va qonuniyligini mustahkamlashga xizmat qilishi va aksincha, jamiyat uchun yot bo'lgan unsurlarning singdirilishi, muvozanatning buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Masalan, XX asrning ikkinchi yarmida, ya'ni minimal talabga javob beradigan siyosiy institutlarga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan sharoitda davlat ravnaqi bilan bog'liq vazifalar Saudiya Arabistoni elitasi tomonidan o'ziga xos mohirlik bilan hal etilgan. Shu bilan birga, "Arab bahori" bilan bog'liq voqe'liklar, monarxiyalarning siyosiy jarayonlarga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish qudratiga ega ekanini ko'rsatdi. Bunda, nafaqat Fors ko'rfazidagi boy davlatlar, balki rivojlanish ko'rsatkichlari yuqori bo'lmagan Iordaniya va Marokash kabi davlatlar ham alohida o'ringa ega. Davlat boshqaruvining an'anaviy va zamonaviy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtira olgan ayni shu ikki davlat misolida aholi orasidagi norozilik kayfiyatlarining qonun doirasida ifodalash yo'li bilan, siyosiy rejimga xavf tug'dirmaslikka erishilgan.

XULOSA

Bir so'z bilan aytganda, Yaqin Sharq mintaqasidagi modernizatsiya jarayoni o'ziga xos tarzda, ya'ni gibril siyosiy tizimlarni shakllantirish yo'li bilan amalga oshirilganini ko'rish mumkin. Ayrim hollarda, uning to'liq muvozanatlashmaganligi, ijtimoiy-siyosiy keskinlik va siyosiy zo'ravonlik uchun yo'l ochib berdi. Yaqin Sharq davlatlari o'z mustaqilligini qo'lga kiritishda, keng tus olgan ozodlik harakatlari muhim o'rin tutgan. Bularning bari xalq orasida milliy o'zlikni anglash jarayonining jadal sur'atlarda kechishi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasi o'laroq, metropoliyalar ushbu xalqlarga mustaqillik berishga majbur bo'lganlar. Istiqloq yo'lidagi urinishlar ommaviy qo'zg'olonlar va boshqa yirik namoyishlar bilan kechgan bo'lsada, aksariyat hollarda kutilgan natijaga tinch yo'l bilan erishilgan. Ammo, bu yo'lda ko'plab qurbonliklar keltirgan davlatlardan biri sifatida Jazoirni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu davlat Fransiya mustamlakasidan qutilish maqsadida 1954-1962 yillar oralig'ida kurash olib borgan. Ushbu qonli urushda 300 mingdan ziyod jazoirliklar qurbon bo'lgan edi. Shuningdek, yuqoridagi kabi holatni 1963-1967 yillar davomida o'z mustaqilligi yo'lida kurash olib borgan Janubiy Yaman misolida ham ko'rish mumkin. Ta'kidlash joizki, ozodlik yo'lidagi ushbu urinishlar oshkora zo'ravonlik kayfiyatida olib borilgan bo'lib, bunda radikal islomchilar asosiy kuch vazifasini o'taganlar. Ko'plab boshqa davlatlarda siyosiy zo'ravonlik o'zini u qadar oshkora tarzda namoyon qilmagan bo'lsada, ijtimoiy-siyosiy hayotning muhim omillaridan biri bo'lib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hobsbawm E. *The Age of Extremes: The Short Twentieth Century, 1914–1991*. – London: Abacus, 2014. – P 246.
2. Барановский В.Г. Трансформация системі міжнародніх отношеній на рубеже ХХ и ХХІ вв. – Москва: Аспект-Пресс, 2016. – С. 242.
3. Примаков Е.М. Ближневосточній курс России: исторические этапі. – Москва: ЯСК, 2012. – С. 213.
4. Maddy-Weitzman B. *A Century of Arab Politics. From the Arab Revolt to the Arab Spring*. – Boulder: Rowman& Littlefield, 2016. – P 74.
5. Наумкин В.В. Арабский мир, ислам и Россия: прошлое и настоящее. – Москва: ИВ РАН, 2013. – С. 374.
6. Примаков Е.М. Конфиденциально: Ближний Восток на сцене и за кулисами. – Москва: Российская газета, 2006. – С. 82.
7. Bengio O. *The kurds of Iraq: building a state within a state*. – Boulder: lynne reinner, 2012. – P. 146.